

ISSN: 2181-4163

IMPACT FACTOR: 8.2

INTERNATIONAL SCIENTIFIC JOURNAL

The international scientific journal "Interpretation and researches" publishes the results of scientific research conducted by school teachers, university students, professors and teachers, and independent researchers in the form of scientific articles. This journal is indexed in authoritative databases and published in electronic form.

The international scientific journal has certificate No. 054841 of the Agency for the Development of Information and Mass Communications under the Administration of the President of the Republic of Uzbekistan. The journal accepts articles in the following areas: 1. Exact sciences 2. Natural sciences 3. Engineering sciences 4. Pedagogical sciences 5. Social and human sciences 6. Medical sciences. Note for authors of articles: articles are accepted in Uzbek, Russian, English, Karakalpak.

INTERPRETATION AND RESEARCHES

[GOOGLE SCHOLAR](#) [ZENODO](#) [CYBERLENINKA](#) [OPEN AIRE](#)

interpretationandresearches.uz



Nº7(29)
25.04.2024





International scientific journal
“INTERPRETATION AND RESEARCHES”

volume 2 issue 7(29)
25. 04. 2024



interpretationandresearches.uz



International scientific
journal
**"Interpretation and
researches"**

Bosh muharrir:
R.I.Abdullayev

Bosh muharrir o'rbinbosari:
N.I.Xolmatova

Texnik muharrir:
X.D.Halimboev

Jurnal O'zbekiston
Respublikasi Prezidenti
Administratsiyasi huzuridagi
Axborot va ommaviy
kommunikatsiya agentligi
tomonidan
2022- yil 22-dekabr sanasida
№054841 raqam bilan davlat
ro'yxatidan o'tkazilgan

ISSN 2181 - 4163

Jurnaldan maqola ko'chirib
bosilganda, manba
ko'rsatilishi shart.

Aloqa uchun:
Telefon: +99891-152-93-14
E pochta: talqin@bk.ru

interpretationandresearches.uz

Tahrir hay'ati a'zolari
(O'zbekiston)

Masharipova Gularam Kamilovna

Falsafa fanlari doktori, professor
Toshkent to'qimachilik va yengil sanoat instituti

Umarova Maxliyo Yunusovna

Filologiya fanlari doktori
O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti

Hojiyev Sanjar Samadovich

Buxoro davlat universiteti "Aqonomiya va
tuproqshunoslik" kafedrasiga katta o'qituvchisi (PhD)

Ruzmatova Gulnoz Miraxrarovna

Falsafa fanlari doktori, professor
O'zbekiston Milliy universiteti

Navruzova Gulchixra Nigmatovna

Falsafa fanlari doktori, professor
Buxoro muxandislik-texnologiya instituti

Djumaniyazova Feruza Djumanazarovna

Tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori
O'zR FA Sharqshunoslik instituti

Akbarov Qobuljon

Qo'qon DPI, Tarix fanlari nomzodi
Bazarov Otabek Odilovich

Tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori

Qo'qon davlat pedagogika instituti

Zokirov Sanjar Ikromjon o'g'li

Fizika-matematika fanlari bo'yicha falsafa doktori.

Farg'ona politexnika instituti

Akramov Shukurjon To'xtasinovich

Filologiya fanlari nomzodi, dotsent
Qo'qon davlat pedagogika instituti

Xasanov Akbarjon Abdurashidovich

Filologiya fanlari nomzodi, dotsent
Qo'qon davlat pedagogika instituti

Yakubov Ilham Yuldashevich

Kimyo fanlari nomzodi
FarDU Kimyo kafedrasiga dotsent

Maxmudova Nilufarxon

Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori
Qo'qon davlat pedagogika instituti

Rahmatullayeva Dilafro'zxon

Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent
Qo'qon davlat pedagogika instituti

Eshquvvatov Ulug'bek Abdulla o'g'li

Termiz muhandislik – texnologiya instituti

Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori

Azimov Zikrjon Muhammadovich

Farg'ona davlat universiteti tuproqshunoslik kafedrasiga
katta o'qituvchisi b.f.f.d., (PhD)

Madrahimov Ilhomjon Sobirovich

Qo'qon davlat pedagogika instituti
o'zbek tili kafedrasiga dotsent

Xojanov Sharapattdin Baltaniyazovich

Qoraqalpoq davlat universiteti Amaliy filologiya
kafedrasiga dotsent, Filologiya fanlari bo'yicha falsafa
doktori

Vaisova Moxira Davlatboevna

Urganch davlat universiteti matematik
tahlil kafedrasiga dotsent

Nazarov Mustaqim Rashidovich

Buxoro davlat universiteti Pedagogika
instituti Aniq fanlar kafedrasiga, dotsenti

Nazarova Nargiza Mustaqimovna

Buxoro davlat universiteti o'qituvchisi
Texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori

Ahmedova Dilfuza Maxammadovna
Farg'ona davlat universiteti ekologiya
kafedrasiga dotsenti

Qo'ldashev Sherali Temiralievich

O'zRFA Sharqshunoslik instituti
tarix fanlari nomzodi, dotsent

Tishabayeva Irodaxon Rasulovna

Muhammad al-Xorazmiy nomidagi
Toshkent axborot texnologiyalar
universiteti Farg'ona filiali "O'zbek tili va
gumanitar fanlar" kafedrasiga katta
o'qituvchisi

Rahmonov G'afforjon Ro'zmatovich
Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat
o'zbek tili va adabiyoti universiteti o'zbek
tilshunosligi kafedrasiga dotsenti

(Xorijiy davlatlar)

Abdukarimov Jamoliddin
Tarix fanlari nomzodi, dotsent

Xo'jand davlat universiteti

Tojikiston

Muxtorov Kiromuddin Tochievich
Huquqshunoslik fanlari nomzodi, dotsent

Xo'jand davlat universiteti

Tojikiston

Hamdamov Sherali Jumabekovich
Matematika-fizika fanlari nomzod
Xo'jand davlat universiteti

Tojikiston

G'ufronov Dodaxon Najmidinovich
Geografiya fanlari nomzodi
Xo'jand davlat universiteti

Tojikiston

Bahriev Fayzullojon Faxriddinovich
Filologiya fanlari nomzodi, dotsent

Xo'jand davlat universiteti

Tojikiston

Fuat Serkan Say

Phd, Mersin Universiteti

Turkiya

Tuba Tombuloglu

Phd, Mersin Universiteti

Turkiya

Hayrettin İhsan Erkoç

Chanakkale Onsekiz Mart Universiteti
Turkiya

Abdul Khalil Ahmadoughli

Baxl Universiteti Til Va Adabiyot Fakulteti
O'zbek Tili va Adabiyoti dotsenti,

Avg'oniston

“ZARBULMASAL”DA BADIY TASVIR VOSITALARI TADQIQI

Astanova Gulnora Aminovna

BuxDU O’zbek tilshunosligi va jurnalistika kafedrasi professori, f.f.d.

guli4803@mail.ru

Latipova Jasmina Lutfilla qizi

BuxDU Filologiya fakultet 1-bosqich talabasi

latipovajasmin@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada Gulxaniy qalamiga mansub “Zarbulmasal” asarida qo’llanilgan badiiy tasvir vositalarini va asarda mavjud ayrim maqollarni tahlil qilishni maqsad qilingan. Mazkur noyob ijod namunasining bugun bilan bog’liqligi va hayotdagagi ta’limiy ahamiyati haqida so’z boradi.

Kalit so’zlar: Gulxaniy, ijod, badiiy san’at, qushlar, maqol.

Аннотация: Целью данной статьи является анализ средств художественного изображения, использованных в произведении «Зарбулмасал», написанного Гульхани, и некоторых пословиц в произведении. Будет обсуждаться актуальность этого уникального примера творчества для сегодняшнего дня и его воспитательное значение в жизни.

Ключевые слова: Гулханий, творчество, искусство, птицы, пословицы.

Abstract: The purpose of this article is to analyze the means of artistic representation used in the work “Zarbulmasal”, written by Gulhani, and some of the proverbs in the work. The relevance of this unique example of creativity to today and its educational significance in life will be discussed.

Key words: Gulxaniy, creativity, art, birds, proverb.

KIRISH

Asl ismi Muhammadsharif bo’lgan Gulxaniy 19-asr oxiri 20-asr boshlarida yashab ijod etgan mashhur masalnavis hisoblanadi. “Fazliy Gulxaniyning «Ko’histon mulkidan» ekanligini ta’kidlasa, Vozeh uni namanganlik, deydi. Gulxaniy Namangan va Qo’qonda yashagan, oz vaqt hammomda o’t yoquvchi — go’lax vazifasida ishlagan (taxallusi shundan).”[4]. Hamma ijodkorlardagidek uning asarlarida ham turmushdan, u yashagan zamondan shikoyat asosiy o’rinni egallaydi. U davr muammolarini ochiq ayta olmaganligi sababli ularga o’zgacha tus beradi, ya’ni u aytmoqchi, yomonlamoqchi bo’lgan insonlarni qushlar obrazi oraqali ko’rsatib beradi. “Gulxaniyning she’riy ijodi, garchand, hajman katta bo’lmasada, 19-asr o’zbek milliy adabiyoti rivojiga samarali ta’sir ko’rsatdi. “Asar nafaqat o’zbek mumtoz adabiyoti, balki butun Sharq adabiyotining ham nodir namunasidir. Gulxaniy unda xalq maqollari (400 ga yaqin maqol), sajlar (qofiyali nasr), masal va

rivoyatlardan samarali foydalangan. Bu masal va rivoyatlar tematik jihatdan bir-biriga bog'lanib, yagona bir syujetni tashkil etgan. Asarda Yapaloqqush bilan Boyo'g'lining quda-anda bo'lishi sarguzashtlari majoziy, o'tkir hajviya tarzida tasvirlangan. Gulxaniy qushlarning o'zaro murakkab munosabatlari asosida o'z davri ijtimoiy hayotining tanqidiy manzarasini yaratgan.”[2].

ASOSIY QISM

Asar boshida boyo'g'lining qizi bo'lган Gunashbonuning tavsifi berilgan:

Orazidin shams- qamardur xijil.

So 'zlaridin shahd-u shakar munfail.

Bunga o'xshash tasvirga “Sabbai sayyor”da ham duch kelishingiz mumkin.

Anga bir uyla nozanin farzand

Kim, bashar ichra yo 'q anga monand.

Demak, Gulxaniy mumtoz adabiyot namunalaridan ta'sirlangan holda ijod qilgan. Endi tasvir vositalariga kelsak, tashxis(jonlantirish, shaxsga xos bo'lган xususiyatlarni jonsiz narsalarga berish) san'atining yorqin namunasini yuqoridagi bayt misolida ko'rishimiz mumkin. Gunashbonuning tasviri davom etadi:

Hosili umri edi ul boyning,

Oti Gunashbonu o 'shal oyning.

Bu yerda istiora san'ati qo'llangan. (Istiora (arabchadan „qarzga olish“) yoki metafora (yunonchadan „ko'chirish“) — asarlarda so'zni o'z ma'nosidan boshqa bir ma'noda, ya'ni majoziy ma'noda qo'llash san'ati.[5]. Baytda ham aslida qiz nazarda tutilgan.

Sabr bilan basta eshikdur kushod,

Sabr bilab topdi eranlar murod.

Sabr sening dardingga darmon bo 'lur,

Sho'ra zamin bog' ila bo 'ston bo 'lur.

Sabri la xor guliston bo 'lur

Basta eshik ochg' usidir sabr bil,

Sabr qil-u, sabr qil-u, sabr qil.

“Irsolu masal (ar. maqol keltirish) she'riy baytda fikr qaymog'ini tashuvchi, ayni paytda, judayam siqiq shakldagi maqollarni qo'llash san'atidir.

Sabr qilsang g'o radin halvo bitar,

Besabrlar o'z oyog'idan yitar.”[1;170].

Bunda tazod san'ati yetakchilik qiladi. Basta – bog'liq, kushod – ochiq; dard, darmon; xor, guliston; sho'ra zamin, bog'da ma'no zidligini ko'rishingiz mumkin. Oxirgi misrada esa mukarrar san'ati bor.

Asarda Hudhud Ko'rpushga duch kelganida uning tilidan bir masal keltiriladi. “Maymun bilan najjor” deb nomlangan bu masal Ko'rpushga tanbeh o'laroq aytilgan

bo’lsa-da, aslida qo’lidan kelmagan ishga uringan kishilar bir kun zavol topishlari aks etgan.

*Bor edi Kashmir navohiyda tog’,
Bog’i eram rashkidin ko’ksida dog’.*

Bu o’rinda esa talmeh san’ati mavjud. “Iram bog’i, Bog’i Eram — mifologik bog’. Sharq xalqlari og’zaki ijodidagi parilar makoni. I. b. gul-zor, mevazor va o’tloqzor bilan qoplangan beqiyos go’zal afsonaviy, tilsimli silsila bog’lar sifatida talqin etiladi. Mifologiyaga ko’ra, Yamanda, ba’zan Shomda deb tasavvur etilgan”[5].

*Shahrning zindonidan ozod o’lub
Tog’ning Shiring’ a Farhod o’lub.*

Misrada talmeh, tashbeh bor. Shahar diqqanafasligidan zerikib o’rmonga borgan duradgor Farhodga mengzanilgangan.

“Tuya bilan bo’taloq” masali esa Ko’rqush tilidan keltiriladi. Unda Tuya kabi mening ixtiyorim o’zimda emas, meni sovchilikka Yapalloqqush yuboryapdi, degan mazmundagi gaplarni aytadi.

*Bo’zlanib aytdi: - Ayo berahm onam,
Kuydi-yu yondi, tutashdi tanam.*

Nido san’ati mavjud. Nido bu- chaqiriq ohangida aytildigan baiiy san’at turidir.

*Asta-asta yursang, bo’lg’ay na g’am,
Siynai sutingdin emay dam-badam.*

“Asta-asta”, “dam-badam” so’zлari orqali mukarrar san’ati ishlatilgan.

*Bir necha qushlar bila hamroz o’lub
Bulbul-qumri bila damsoz bo’lub.*

“Qumri”, “bulbul”, “qushlar” so’zлari tanosib san’atini hosil qilgan. “Tanosib (arabcha; bir-biriga munosib) da bir-biriga jinsdosh, mutanosib bo’lgan so’zlar ishlatiladi va ular vositasi bilan lirik (kayfiyat, kechinma) qahramonning qiyofasi go’zal ifoda etiladi” [1;172].

*Agar so’z jona paydo qilmasa so’z,
Ani so’z demagil, ey majlis afro’z.*

Misrada “so’z” kalimasi omonimligi tufayli tajnis san’atini yuzaga keltiryapdi: so’z - nutqni tashkil etuvchi qism, so’z - kuymoq, alanganmoq. “Tajnis (ar. jinsdosh) aytishi va yozilishi bir xil, ammo ma’nolari har xil bo’lgan — jinsdosh so’zlar orqali obraz, lavha, kechinma, tuyg’uni ta’sirchan ifodalash san’atidir. Uni «jinos» (hamjins) deb ham ataydilar” [1;172].

Ijod mahsulida maqollarning juda o’rinli qo’llanilganligi Gulxaniyning iste’dod darajasidan darak beradi. Unda Ko’rqush tilidan keltirilgan Kulonkir sultonga pand-nasihat berish maqsadida aytilan ushbu maqollar yodda tutsa arzigulik: “Erga bersang oshingni, erlar silar boshingni, itga bersang oshingni, itlar chaynar

boshingni...”, “Yaxshi bilan yurding - yetding murodg'a, yomon bilan yurding - qolding uyatg'a”, “Yomon bilan yondashsangiz, balosi yuqar, qazong'a yondashsangiz, qarosi yuqar...” Bu podsholar yashagan saroy muhitit butun mamlakatda hukmron bo'lgan iqtisodiy, ma'naviy, siyosiy vaziyat bilan bog'liq. Agar hukmdor davlat boshqaruvida va vazirlariga nisbatan adolatli, o'z navbatida qattiqko'l bo'lsa, butun jamiyat ham farovon hayot kechiradi. Agarda podsho atrofiga fitnachi, manfaatparastlarni to'plasa, ular podshohga qarolarini yuqtirishadidi va natijada butun mamlakat qaro zulmat ostida qoladi.

Ijod namunasi davr muhitit bilan bog'liq siyosiy muammolarni qushlar suhbatini orqali aks ettiradi. “Gulxaniy bu asarni yozishga kirishgan paytda Qo'qon xonligini uzoq vaqt qiynab kelgan bir siyosiy jumboq – O'ratega masalasi endigina o'z yechimini topgan, Qo'qondagi hukmdor toifalar O'rategapani o'ziga qaratib olib o'zlarini g'olib hisoblab, Qo'qon xonligini Buxoro amirligidan ustun ko'rayotgan yillar edi. Buxoro bilan Qo'qon xonliklari orasida bir tomoni Xo'jand, ikkinchi tomoni Jizzaxgacha tutashgan O'ratega bekligi mavjud bo'lib, bu beklilik, tarixiy an'analarga ko'ra, mustaqil davlat huquqi uchun kurashib kelar, xonlar esa strategik jihatdan muhim ahamiyatga ega bo'lgan bu viloyatni bo'ysundirish uchun tinimsiz kurash olib boraradilar. O'ratega bekligi mustaqillikni bir munkha vaqt saqlab qolishga erishgan bo'lsa ham, ko'proq Buxoro izmida qolishga izmida qolishga majbur edi. Qoqon xonligi markazlashib olganidan keyin Olimxon va Umarxonlar davrida O'rategapani bo'ysundirish uchun kurash boshlanadi. XIX asrning birinchi choragi davomida Qo'qon xonlarining O'ratega uchun Buxoroga qarshi 20 martadan ortiq yurish qilgani tarixdan ayon. O'ratega qo'rg'oni Amir Umarxonning 1817 yilgi yurishlaridan birida ishg'ol qilindi. Biroq undan keyin ham bu yerda osoyishtalik yuzaga kelmadi. Zarbulmasalda Qoqon –O'ratega-Buxoro munosabatlariga doir ana shu tarixiy holat-siyosiy inqirozlar davri o'z ifodasini topgan. “Movorounnahr Buxoroda Amir mo'minin Sayyid Muhammad Umarxon buzgan ...Rabot, Pushog'ar, Zomin, Bekobod, Xayrobod...” deb sanaganda adib O'ratega bekligini nazarda tutib gapqilgan edi.”[3].

XULOSA

Umuman olganda, Gulxaniy jamiyatdagi uni qoniqtirmagan muhitni me'yoriga yetkazib ajoyib tasvirlagan. Hajman katta bo'Imagan asarni maqollardan tashkil topgan didaktik ijod mevasi deyish mumkin. Unda qo'llangan rang-barang tasvir vositalari, arabiyl, forsiy kalimalarning ko'pligi sharq adabiyotidan ta'sirlanganini ko'rsatadi. Asaridagi har bir obraz ismiga monand ma'lum vazifasi bajaradi. Deylik, Sovchilik uchun Ko'rqush tanlangani bejizga emas, u ko'rgan narsasiga mahkam yopishib oladi. Ayniqsa, bunday sovchilar “Qizi borning nozi bor” qabilida ish ko'ruchchi boyo'g'li kabi qushni rozi qilish uchun asqatardi. Qushlar tilidan keltirilgan masallar insonni mushohadagi chaqiradi, “Yodgor po'stindo'z”da maqtanchoqlik

salbiy illat ekanligi e'tirof etilsa, “Toshbaqa bilan chayon” masalida esa hamroh tanlashda adashmaslik va shu qatorda yaxshi hamroh bo'la olishga chaqiradi. Hajman katta bo'limgan ushbu asar Gulxaniy tafakkuri mahsuli o'laroq ulug'lanadi.

Foydalilanilgan adabiyotlar:

1. Adabiyotshunoslik nazariyasi. Toshkent, Abdulla Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti, 2004.-B. 170.
2. <https://n.ziyouz.com/portal-haqida/xarita/uzbek-sheriyati/o-zbek-mumtoz-adabiyoti/gulxaniy> (Abdurashid Abdug‘afurov)
3. Qodirova S. A. //“Zarbulmasal” asarining g’oyaviy va badiiy ahamiyati.
4. <https://ilmlar.uz/gulxaniy-hayoti-va-ijodi-haqida/>
5. <https://uz.wikipedia.org/wiki/Istiora>
6. Гулханий. Зарбулмасал. (Нашрга тайёрловчи Ф. Исҳоқов.) Т., Адабиёт ва санъат нашриёти, 1974. 80 б.

XIZMATLARI

Haydarov Mehriddin Po'latjonovich
Usmanova N.B.

15.	NOGIRONLIGI MAVJUD SHAXSLARNING IJTIMOIYLASHUVI Qo'chqorova Dilnoza Sherboboyevna	87
16.	RENIY METALINI OLISHI VA QO'LLANILISH SOHALARI Xudoymuratov Shuxratjon Jumaboyevich Tursunova Iroda Abdurashit qizi	93
17.	PROSPECTS OF USING INTERNATIONAL EXPERIENCE IN THE SUSTAINABLE DEVELOPMENT OF TOURISM Saidmurodov Komiljon Bakhodir ugli	98
18.	INTEGRATSION YONDASHUV ASOSIDA BO'LAJAK O'QITUVCHILARNI KASBIY FAOLIYATIGA TAYYORLASHNING PEDAGOGIK XUSUSIYATLARI Nazokatxon Yusupova Vahobxon qizi	104
19.	ZIRHLI TANK QUROLLARI KOMPLEKS HIMOYASIGA ZAIFLIK MODELINI ISHLAB CHIQISHNING O'ZIGA XOS JIHATLARI Shamudinov Sharafiddin Kamalovich	110
20.	CRATERELLUS TUBAEFORMIS QO'ZIQORINI TARKIBIDAN POLISAXARIDLARNI OLİSH VA TOZALASH USULLARINING TAHЛИI Rasulova Oydinoy Rashidovna, Ro'ziyeva Zarnigor Qaxramonovna Saidakbarova Malika Xusniddin qizi Choriyeva KumushYusufjon qizi	119
21.	THE EFFECTIVENESS OF TECHNOLOGIES ON TEACHING EFL LESSONS Karayeva Dinara Xaydar qizi	124
22.	ROALD DAHLSUNG "CHARLI VA SHOKOLAD FABRIKASI" ASARIDA BOLA OBRAZINING BADIY O'ZIGA HOSLIGI Xamrakanova Nasiba	128
23.	"ZARBULMASAL"DA BADIY TASVIR VOSITALARI TADQIQI Astanova Gulnora Aminovna Latipova Jasmina Lutfilla qizi	133
24.	O NEKOTORÝX ZAGÁDKAX TÓPONIMA ÉSHIMЖИРАН Зарафат Матюсуповна Рахимова	138
25.	МОДЕЛИРОВАНИЕ И РАСЧЕТ РУПОРНЫХ АНТЕНН С ИСПОЛЬЗОВАНИЕМ КОМПЬЮТЕРНОГО ОБЕСПЕЧЕНИЯ Яронова Наталья Валерьевна, Тилеубергенова Диана Досбергеновна Юнусова Гулшаной Умарали кизи Кодиров Иззатжон Аброржон ўғли	143
26.	OILAVIY TADBIRKORLIK FAOLIYATINI QO'LLAB-QUVVATLASHNING HUQUQIY VA IQTISODIY MEXANIZMLARI Usmonov Azamat Juraboyevich Mukumova Nargiza Umarovna	151
27.	БАКТЕРИОНОСИТЕЛЬСТВО СТАФИЛОКОККОВОЙ ИНФЕКЦИИ Саидов Аълонур Баҳтинурович Сабурова Юлдуз Тохировна	159
28.	KREDIT TIZIMI ORQALI TALABALARNI JODIY FAOLIYATINI TASHKIL ETISHNING PEDAGOGIK ASOSLARI Yo'ldashev Abdurauf Ro'zmatjonovich	164

International scientific journal “Interpretation and researches”

Volume 2 issue 7 (29) | ISSN: 2181-4163 | Impact Factor: 8.2

Eslatma! **“Interpretation and researches”** xalqaro ilmiy jurnaliga kiritilgan maqolalardagi raqamlar, ma'lumotlar haqqoniyligiga va keltirilgan iqtiboslar to‘g‘riligiga mualliflar shaxsan javobgardirlar.

International scientific journal
“Interpretation and researches”
xalqaro ilmiy jurnal
2024-yil 7(29)-son

© Mualliflar jamoasi, 25.04.2024. 171 bet.
© O‘zbekiston Respublikasi, Farg‘ona viloyati
© interpretationandresearches.uz